

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 4 (16)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Akbarov Ravshan Xalimovich JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI	4
2	Ахрарова Амалия Искандеровна ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА	14
3	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССР САБЗАВОТ-ПОЛИЗ ЭКИНЛАРИ ВА КАРТОШКА ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН	27
4	Israilov Nodir Raximjonovich XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI	39
5	Kandaxarov Anvarjon Xasanovich BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOY-SIYOSIY TA'SIRI	45
6	Mamajonov Soyibjon Xalilovich AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA	52
7	Mahkamova Zulxumor Murodjon qizi TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI	58
8	Mirzayeva Zaxra Xayritdinovna KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI	64
9	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TO'SKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ORTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA	71
10	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI	85
11	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGI-XITOIY O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA	90
12	Raxmankulova Matluba Bayxurazovna XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI	96
13	Razzokova Nigora Olimjon kizi INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS	107
14	Sadirov Aziz Sirojiddinovich MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L TRANSPORT INFRAUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	113
15	Сиддиков Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)	120

Nuridinov T. Q.

«Tarix» kafedrası dotsenti, PhD

Qo‘qon davlat universiteti

turdalinuridinov835@gmail.com

Haydaraliyev X. M.

«Gumanitar fanlar va tillar fakultet» talabasi

Qo‘qon davlat universiteti

xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

QO‘QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qo‘qon xonligida aholini ommaviy ishlarga jalb etilishi masalasining tarixshunoslikdagi yoritilishi tahlil etiladi. Maqolada xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, soliq tizimi va mehnat majburiyatlariga oid ilmiy adabiyotlar hamda tarixiy manbalar o‘rganilib, A. Juvonmardiyev, R. Nabiyeu, H. Bobobekov va boshqa olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada aholini sug‘orish inshootlari qurilishi, obodonchilik, mudofaa va xo‘jalik ishlariga jalb etish shakllari, mehnat majburiyatlarining “hashar”, “mardikor solig‘i”, “jamarg‘ayi yurtiya” kabi ko‘rinishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, tarixshunoslik, ommaviy mehnat, hashar, mehnat majburiyati, soliq tizimi, sug‘orish inshootlari, aholi safarbarligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, obodonchilik ishlari.

KIRISH

Qo‘qon xonligida sug‘orish inshootlari, mudofaa obyektlari, yo‘llar va jamoat binolarini barpo etish hamda ta‘mirlash ishlari ko‘pincha aholini ommaviy mehnatga safarbar etish orqali amalga oshirilgan. Bu jarayonlar xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimi bilan chambarchas bog‘liq edi. Mavjud tadqiqotlarda yer-suv munosabatlari, soliq siyosati va sug‘orish tizimi masalalari yoritilgan bo‘lsa-da, aholini ommaviy ishlarga safarbar qilish amaliyotining tarixshunoslikdagi talqini alohida tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada ushbu masalaning tarixshunoslikda yoritilishi tahlil qilinib, ilmiy adabiyotlar va manbalardagi yondashuvlar qiyosiy asosda baholanadi.

Aholini ommaviy mehnatga safarbar etish masalasi maxsus tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, uning ayrim jihatlari A.O‘rinboyev, A.Juvonmardiyev, R.N.Nabiyeu va H.N. Bobobekov asarlarida uchraydi. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va tarixshunoslik tahlili metodlaridan foydalanildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Qo‘qon xonligida davlat daromadlarining asosiy qismini turli soliqlar va majburiy yig‘imlar tashkil etgan. Soliq tizimi xonlikning iqtisodiy hayoti, davlat boshqaruvi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Mavjud soliqlar joriy etilish xususiyatiga ko'ra shariat asosidagi soliqlar, rasmiy soliqlar, an'anaviy soliqlar hamda favqulodda joriy etilgan soliqlarga bo'lingan. Shariat qonunlariga muvofiq undirilgan asosiy soliqlar xiroj, ushr va zakotdan iborat bo'lgan.

Soliqlardan tashqari aholi majburiy ravishda turli ishlarga – kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlari, turli qurilishlarga, ayniqsa, hukmron tabaqalarning xizmatlariga jalb etilgan. Xonlikda mavjud bo'lgan mehnat majburiyatlari masalasini alohida o'rganish Qo'qon xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ba'zi jihatlarini tushunishga yordam beradi, deb hisoblaymiz. turli mehnat majburiyatlari ham mavjud bo'lib, ular ko'proq suv inshootlari qurilishida va bahor oylarida obodonchilik ishlarida keng qo'llanilgan. Manbalarda mehnat majburiyatlari turli nomlar bilan atalganligini ko'rish mumkin. Soliqlardan ozod etish haqidagi yorliqlarda «jamarg'ayi yurtiya» nomi qayd etiladi. Sharqshunos A.Juvonmardiyev uni aynan ishlab berish majburiyati ekanligini ko'rsatib o'tadi [1. – B. 65.].

Muarrix Muhammad Aziz Marg'iloniy esa Ulug'nahr kanalini qazishdagi mehnat majburiyatini «mardikor solig'i» deb yozadi [8. – B. 15-16.]. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, aholi orasida bu majburiyat «hashar» deb ham yuritilgan. Bundan mehnat majburiyatini nomlashda davlat hujjatlari bilan aholi nutqida turlicha atamalar qo'llanilganligini anglash mumkin.

Ma'lumki, Qo'qon xonligi iqtisodiy hayotining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan bo'lib, xonlarning iqtisodiy siyosatida sug'orish tarmoqlarini qurish, ularni doimiy ravishda ta'mirlash alohida e'tibor bilan qaralgan sohalaridan hisoblanadi. Vodiyning turli yerlarida sug'orish inshootlarini qurish ishlari Umarxon va Madalixon davrida ayniqsa, keng yoyildi. O'rta Osiyoning sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlari tarixiga ahamiyat berilsa, sug'orish tarmoqlarini qurish ishlari keng xalq ishtirokida amalga oshirilganligini ko'ramiz. Asrlardan buyon davom etib kelayotgan an'ananing o'ziga xosligi shunlaki, sug'orish inshootlarining barpo etilishidan hukmdorlar, yirik yer egalari, oddiy dehqonlar manfaatdor bo'lgan. Asosiy daromad manbai bo'lgan dehqonchilik yerlarni kengaytirishni talab qilganligi, yangi sug'orish tarmoqlariga zhtiyojni keltirib chiqarganligi sir emas. Qo'qon xonligida mehnat majburiyati oliy hukmdor yoki viloyat hokimining buyrug'iga asosan amalga oshirilib, har bir xonadondan bir kishi ish asbobi bilan bir necha muddatga ishlab bergan. Hasharlar bir, ikki, uch va ko'p kunlik bo'lar edi [9. – C. 255.]. Shu bilan birga, bir necha kunlik hasharlar ham mavjud edi. Buni Umarxon tomonidan 1819-yilda Yangi ariqni qazish ishlarida qatnashish uchun Namangan viloyatidagi har bir oiladan bir kishi o'z ovqati va ketmoni bilan 15 kun davomida hasharda bo'lishlari haqidagi buyrug'i ham tasdiqlaydi.

Aholi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining boshqa sohalarida ham hashar ishlariga tortilgan. Ular nafaqat sun'iy sug'orish inshootlarini barpo etish, eskilarini ta'mirlash va tozalash, balki saroylar, madrasalar, masjidlar, harbiy istehkomlar va himoya vositalarini qurish ishlariga ham jalb qilingan. Ommaviy hashardan qishloq xo'jaligidagi ishlarda, jumladan, sholi yetishtirish, qamish o'rish, o'tin va yantoq terish ishlarida keng foydalanilgan. 1866–1867 yillarda

G'umayli, Dang'ara, Oltiqush, Amirobod, Qirqlar, Qizilmusht, Eshon Bobo, Aravon qishloqlari oqsoqollari va fuqarolariga Yermasjid yaqinidagi botqoqli yerdan qamishni o'rish uchun hasharga chiqish buyuriladi.

Mehnat majburiyati sovet davrida nashr qilingan adabiyotlarda aholiga yuklatilgan «og'ir majburiyat»lardan deb e'tirof etiladi. To'g'ri, aholining zimmasiga yuklatilgan bu majburiyatlar og'ir mehnatni talab qilardi. Bu mehnatning samarasidan turli hukmdorlar, amaldorlar, jamiyatning yuqori ijtimoiy tabaqasida turgan aholi foydalanar, uni bajaruvchi aholining ahvoli esa og'irligicha qolib ketar edi. Shuning uchun bu ko'p hollarda aholining noroziligiga sabab bo'lardi. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi tomoni bunday mehnat majburiyatlari zahirida faqat hukmdorlar manfaati emas, balki fuqarolar manfaati, yurt obodligi turadi. Bir necha asrlardan buyon davlatchilik tarixida obodonchilik ishlarini olib borishda hasharning mavqei nechog'li yuqori ekanligi hozirgi kunda ham o'z tasdiq'ini topmoqda.

Xonlikning chorvador aholisi xo'jalik va turmush tarzi xususiyatlaridan kelib chiqib ommaviy ishlarga ko'p ham jalb qilinmagan. Chorvadorlardan zakot yig'ish uchun devonbegi harbiy otryad yordamidan foydalangan. Birinchidan, soliq yig'uvchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida, ikkinchidan, undirilgan chorva hayvonlarini markazga olib ketish uchun harbiylar xizmatidan foydalanilgan.

XULOSA

Qo'qon xonligida aholini ommaviy ishlarga safarbar etish davlatning xo'jalik va ma'muriy faoliyatida muhim o'rin tutgan. Ushbu tizim sug'orish inshootlari, mudofaa obyektlari va boshqa jamoat ahamiyatiga ega qurilishlarni amalga oshirishda asosiy mehnat manbai vazifasini bajargan. Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili mehnat majburiyatlari qishloq xo'jaligi hamda sug'orish tizimining rivojlanishiga xizmat qilganini ko'rsatsa-da, ayrim hollarda aholi zimmasiga qo'shimcha yuk yuklab, ijtimoiy noroziliklarga ham sabab bo'lganligini tasdiqlaydi. Shuning uchun Qo'qon xonligidagi ommaviy mehnat safarbarligini uning tarixiy sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini hisobga olgan holda kompleks yondashuv asosida baholash zarur.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жуvonмардиев А. XVI–XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965.
2. Бобобеков Ҳ.Н. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996.
4. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998.
5. Илҳомов З. Хотираларда жонланган сиймо // Жамият ва бошқарув. – 2000. – № 1.
6. Муҳаммад Яҳёхон. Туркистон хонлари тарихи // Ватан. – 1994. – № 28, 31, 35.
7. Муҳаммад Яҳёхон. Бўри баковул экан // Ватан. – 1995. – № 13, 14, 16, 20, 23, 27.

8. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. – Тошкент: Фан, 1999.

9. Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. – Ташкент: Фан, 1973.

Нуридинов Т. К.

PhD., доцент кафедры «История»

Кокандский государственный университет

turdalinuridinov835@gmail.com

Хайдаралиев Х. М.

Студент факультета «Гуманитарных наук и языков»

Кокандский государственный университет

xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

ИСТОРИОГРАФИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ К ОБЩЕСТВЕННЫМ РАБОТАМ В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится анализ историографии вопроса привлечения населения на общественные работы в Кокандском ханстве. В ходе исследования изучены научная литература и исторические источники, посвященные социально-экономической жизни ханства, налоговой системе и трудовым обязательствам, а также сравнительно проанализированы взгляды А. Джувонмардиева, Р. Набиева, Х. Бобобекова и других исследователей. В статье освещаются формы мобилизации населения на строительство ирригационных сооружений, благоустройство, оборонительные работы и хозяйственные работы, а также проявления трудовых обязательств, таких как «хашар», «мардикор солиги» и «джамаргай-юртия».

Ключевые слова: Кокандское ханство, историография, массовый труд, хашара, трудовая повинность, налоговая система, ирригационные сооружения, мобилизация населения, социально-экономическая жизнь, общественные работы.

Nuriddinov T. Q.

PhD., associate professor at the department of «History»
Kokand State University
turdalinuridinov835@gmail.com

Khaidaraliev Kh. M.

Student at the Faculty of Humanities and Languages
Kokand State University
xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com

HISTORIOGRAPHY OF THE POPULATION'S INVOLVEMENT IN PUBLIC LABOR IN THE KOKAND KHANATE

ABSTRACT

This article analyzes the historiography of the mobilization of the population for public works in the Kokand Khanate. The study examines scientific literature and historical sources on the khanate's socio-economic life, tax system, and labor obligations, as well as the views of A. Juvonmardiyev. The views of A. Juvonmardiyev, R. Nabiyeu, H. Bobobekov, and other scholars are comparatively analyzed. The article sheds light on the forms of mobilizing the population for the construction of irrigation facilities, beautification, defense, and household work, as well as the manifestations of labor obligations such as “hashar,” “mardikor solig‘i,” and “jamarg‘ayi yurtiya”.

Keywords: Kokand Khanate, historiography, mass labor, hashara, labor obligation, tax system, irrigation facilities, population mobilization, socio-economic life, public works.